



YANGI KONSTITSIYA-- YANGI KELAJAK SARI!

*Authours: TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi
akademik litseyning 1.13-guruh o'quvchilari
Ravshanbekov Po'latxon Muzaffar o'g'li va
Soyibov Xojiahmad Fayzulla o'g'li*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolani yozishdan maqsad, Konstitsiyamizning tarixiy shakllanish bosqichlarini, ularning har birida amalga oshirilgan islohotlarni, mustaqillikning dastlabki yillaridan tortib bugungi kungacha batafsil yoritishdir. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qanday zaruriyatlar tufayli yaratilgani, u xalqning qadryatlarini, milliy ma'nfatini qanday ifoda etgani, shuningdek, keyingi yillardan demokratik yangilanishlar jarayonida unga kiritilgan o'zgarishlarning mazmun-mohiyatini tahlil qilishdan iboratdir.*

***Kalit so'zlar:** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, konstitutsiya tarixi, konstitutsiyaviy islohotlar, mustaqillik davri, 1992-yil Konstitutsiyasi, 2023-yil yangi tahrir, referendum, demokratik yangilanishlar, davlat boshqaruvi, prezident vakolatlari, parlament va senat, huquqiy davlat, OAV erkinligi, yoshlar ishtiroki, O'zbekiston 2030 strategiyasi.*

***Аннотация.** Цель написания данной статьи — подробно осветить исторические этапы формирования нашей Конституции, реформы, проведённые на каждом из этих этапов, начиная с первых лет независимости и до сегодняшних дней. Рассматриваются причины принятия Конституции Республики Узбекистан 8 декабря 1992 года, каким образом она отражает ценности народа и его национальные интересы, а также анализируется сущность изменений и дополнений, внесённых в неё в процессе демократических преобразований последующих лет.*

***Ключевые слова:** Конституция Республики Узбекистан, история Конституции, конституционные реформы, период независимости,*



Конституция 1992 года, новая редакция 2023 года, референдум, демократические преобразования, государственное управление, полномочия президента, парламент и сенат, правовое государство, свобода СМИ, участие молодежи, стратегия «Узбекистан–2030».

Annotation. *The purpose of this article is to provide a detailed overview of the historical stages of the formation of our Constitution and the reforms carried out at each stage, from the early years of independence to the present day. It examines the reasons behind the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan on December 8, 1992, how it reflects the values and national interests of the people, and analyzes the essence of the amendments and reforms introduced during the subsequent years of democratic transformation.*

Key words: *Constitution of the Republic of Uzbekistan, history of the Constitution, constitutional reforms, independence period, 1992 Constitution, 2023 new edition, referendum, democratic transformations, state governance, presidential powers, parliament and senate, rule of law, freedom of mass media, youth involvement, Uzbekistan 2030 Strategy.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Konstitsiyasi haqida so'z yuritishdan oldin konstitsiya nima degan savolga javob berish o'rinlidir. Konstitsiya lotincha ("Constitution" so'zidan olingan bo'lib "belgilash", "tuzish") degan ma'noni anglatadi. Konstitsiya barcha joriy qonunlarning asosi bo'lib, davlat tuzulishi hokimiyat va boshqaruv organlari tizmlarining vakolatlari hamda shakillantirish tartibi, saylov tizmi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek sud tizmini belgilaydi.

Konstitsiya tarixi. O'zbekistonning O'zbekiston Sovetlar Syezdi tomonidan qabul qilingan mazkur konstitsiya 1927-yil 11-iyulda nashir etilgan. O'zbSSR "ishchilar va dehqonlarning sotsialistik davlati" deb e'lon qilingan. Bunda butun hokimiyat ishchilari, dehqonlar va Qizil Armiya deputatlari sovetlariga tegishli ekani belgilangan. Amalda davlatga va hukumatga rahbarlikni Sovetlar Markaziy ijroiya Qo'mitasi hamda O'zSSR hal qilivchi organlari amalga oshirilgan. Ushbu konstitsiyaning qiziq jihati shundaki, mehnat fuqarolarning huquqi emas,



balki majburiyati sifatida tan olingan. Daromad olish maqsadida yollanma mehnatdan foidalangan shaxslar, mehnatsiz daromad evaziga yashovchilar, xususiy savdogarlar, diniy xizmatchilar Rossiya imperiyasi Buxoro amirligi va Xiva xonligi politsiya muhofaza tizmi sobiq xodimlari ovoz berish va saylanish huquqidan mahrum etilgan. O'zSSR konstitutsiyasi 10 yil davomida 1937yilgacha amal qilgan. 1936-yil SSRning Stalincha konstitutsiyasi qabul qilingach,

O'zSSRning asosiy qonuni ham yangin tahrirda ishlab chiqarildi va 1937-yil 14fevralda qabul qilingan. U 13ta bob va 146 ta moddadan iborat bolgan. Darvoqe, mazkur konstitutsiyada mehnat endi fuqaroarning majburiyati emas, balki huquqi sifatida tan olindi. Endilikda aholining barcha toifalardagi shaxslari saylash va saylanish huquqiga ega bo'ldi. Ikkinchi asosiy qonun avvalgisidan ancha ko'p, yani

40 yildan ortiq vaqat davomida amalda bo'lgan. 1978-yil Stalincha Konstitutsiya

“Brejnev Konstitutsiyasi” bilan almashtirildi. 1978-yil 19-aprelda SSRning so'nggi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Ushbu Konstitutsiya 11ta bob va 183ta moddadan iborat bo'lgan mamlakatimiz mustaqilligiga qadar amalda bo'lgan. SSR Konstitutsiyasi haqida yuridik fanlar doktori, professor Halim Bobeyev shunday deydi: “Inson hayoti muqaddas. Ammo hayotda bu qonunlarning ko'pi amalda bajarilmagan. Siyosiy topshiriqlar, yo'nalishlar, yuqoridan kelgan farmoishlar ustun bo'lgan. Hammasi markazga bo'g'liq edi-bu iqtisod bo'ladimi, siyosat bo'ladimi, manaviyat bo'ladimi barbir.”

1991-yil 31-avgust –Vatanimiz tarixiga zarhal harflar bilan abadiy bitilib qo'yilgan voqea sodir bo'ldi, O'zbekiston fuqarolari davlat mustaqilligiga erishdi. Qabul qilinadigan yangi konstitutsiya mustaqil davlatchilik tamoyillarini to'liq aks ettirishi, keyinchali yaratiladigan barcha qonunlar va qonunosti hujjatlar aynan konstitutsiyaga asoslanishi lozim edi. O.,sha yillari 64 kishilik a'zoni o'zida jamlagan konstitutsiyaviy komitssiya tuzldi va ikki yildan ortiq vaqt mobaynida konstitutsiya loyihasi tayyorlandi. Ushbu komitssiya birinchi prezidentimiz I.A.Karimov boshchilik qilgan.



Yangi konstitsiyaning birinchi loyihasi 1992-yil 26-sentabr kuni tayyor boldi va matbuotda chohop etildi. Loyiha e'lon qilingan zahoti uning umumxalq muhokamasi juda keng tuz oldi. Yurtdoshlarimiz tomonidan bildirilgan takliflar soni 600taga yaqin takliflar kelib tushgan. Bu takliflar yana ko'rib chiqilib loyiha sezilarli darajada qayta ishlanib, takomillashtiildi. Shundan so'ng, 1992-yil 6-dekabrda loyiha so'nngi marta muhokama qilindi. Nihoyat, 1992-yil 8-dekabr kuni O'zbekiston Oliy Kengashining 12-chaqriq, 11- sessiyasida bosh Qomusimiz qabul qilindi.

1991-yildan buyon Adliya tizmidagi ishlab kelayotgan xodim Dilor

Sulaymonova bu kunni shunday eslaydi: —*Bosh Qomusimiz qabul qilingan kun kechagidek esimda, hammamizni yig'ib tantanali ravishda qabul qilingan. Bu kunni eslasam haligacha etimi jimirlaydi.*¶

Konstitsiya qabul qilingan kun davlatimizning “qayta tog'ilish kuni” bo'ldi, mustaqilligimizga mustahkam poydevor qo'yildi. Ammo hayot davom etadi. Taraqqiyot to'xtamaganidek, har qanday hujjat ham vaqt o'tishi bilan islopga muhtoj bo'ladi.

Yangi tahrirdagi konstitsiya. O'zbekiston Respublikasining yangi tahriri 2023-yil 1- maydan etiboran kuchga kirdi. Bunga 30-aprel kuni bo'lin o'tgan referendum natijasi asos bo'ldi. Referendumga ko'ra 11ta moddadan iborat tegishli qonun qabul qilindi va ushbu qonunning birinchi moddasiga Konstitsiyaning yangi tahririni ilova qildi. Shu vaqtga qadar, ya'ni 1992-yildan buyon konstitutsiyaga jami 16 marta o'zgartirish kiritilgan edi. Shu sababli o'zgarishlar soni juda katta bo'lgani uchun hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida bosh qomusimizdagi moddalar soni 128 tadan 155 tagacha, undagi normalar esa 275 tadan 437 tagacha ko'paydi. Umuman olganda Konstitsiya 65 foizga yangilani.

O'zbekiston suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat.

Konstitutsiyaning birinchi moddasidagi “O'zbekiston sevre, demokratik Respublika” jumlasini qo'ydagicha o'zgartitildi: “O'zbekiston boshqaruvining Respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.” Yangi tahrirga ko'ra Konstitsiyaning 124-moddasi bilan birinchi moddasidagi qoidalarni qayta ko'rib chiqmaslik belgilandi. Xuddin shunday qoida



154-moddada ham mustahkamlandi. Bu degani O'zbekiston hech qachon demokratiyadan vos kechmaydi, huquqiy davlatdan cheklanmaydi, monarxiya yoki diniy Respublikaga aylanib ketmaydi. Konstitutsiyamizning 15-moddasiga qo'ydagicha o'zgartirish kiritilgan: "Konstitutsiya mamalakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega to'ridan to'g'ri amal qiladiva yagona huquqiy makonni asosini tashkil etadi.

Axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalari o'zi taxmin etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Asosiy yangilik: ommaviy axborot vositalari faoliyatiga to'sqinlik uchun javobgarlik Konstitutsiya darajasida belgilandi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks va Jinoyat kodekslariga tegishli javobgarlik kiritilishi haqida to'rt-besh yildan beri gapirilib kelinadi. Lekin ularning barchasi og'zida va qog'ozda qolib ketmoqda.

Endilikda referendumda qabul qilingan qonunga ko'ra, Vazirlar Mahkamasi qonunchilikni yangi Konstitutsiyaga moslashtirish dasturini ikki oy muddat ichida ishlab chiqib, Parlamentga kiritishi kerak. Konstitutsiyaning yangi tahririga binoan prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi. Prezidentning davlat boshlig'i maqomi aynan bir shaxs surunkasiga 2 muddatundan ortiq prezident bo'lishi mumkin emasligi haqidagi qoida, prezidentning qasamyodi matni va prezidentga taalluqli boshqa aksariyat normalar o'zgarishsiz qoldirildi.

Ma'lumot uchun: prezidentning vakolat muddati 2003- yilda ham 5 yildan 7 yilga o'zgartirilgan, 2011- yilda esa qaytarilgan edi. Keyinchalik yana 5 yilga tushirilgan edi. Bosh vazir nomzodini endi prezident tayinlaydi va taqdim etadi. Prezident bosh vazir nomzodini taqdim etishdan oldin Parlamentga kirgan barcha partiyalarning fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o'tkazishi belgilandi. Qonunchilik palatasi prezident taqdim etgan nomzodni ko'rib chiqadi. Agar deputatlarning yarmidan 3/2 qismi ma'qullasa, bosh vazir lavozimiga tasdiqlanadi.



Senat esa eng yuqori martabali sud mansabdorlarini, bosh prokuror va Hisob palatasi raisligini, shuningdek, davlat xavfsizlik xizmati raisligiga nomzodni prezident bilan maslahatlashib tasdiqlaydi. Markaziy bank raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi. Xorijdagi asosiy diplomatlarni tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi. Shuningdek, senat mahalliy kengashlarning qonunga zid qarorlarini bekor qilish vakolatiga ega. Uchdan ikki qismi ma'qullasa Bosh vazir lavozimiga tasdiqlanadi agar deputatlar nomzodni uch marta rad etsa, prezident Bosh vazirni tayinlab qonunchilik palatasini tarqatib yuborishga haqli. Avvalgi tartibga ko'ra Bosh vazir nomzodini qonunchilik palatasida eng ko'p o'rinni egallagan partiya taklif qilar, prezident ma'qullagach nomzod ikki palata tomonidan tasdiqlanishi talab etilardi. Senatorlar soni 100 nafardan 65 nafariga tushiriladi, 14 ta hududdan 13 nafar emas 4 nafar senator saylanadi, prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni 16 nafardan 9 nafarga qisqaradi bu o'zgarish 2024 yilda bo'ladigan parlament saylovi vaqtida kuchga kirdi. Qonunchilik palatasi deputatlari sonini oshirmaslikka o'zgarishsiz qoldirishga qaror qilindi. Bosh vazirni tayinlash va unga ishonchsizlik bildirishda senatning ishtirokchi bekor qilindi endilikda buning uchun deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismi ovoz berishi yetarli, bundan tashqari qonunchilik palatasi hukumati a'zolarini iste'foga chiqarish to'g'risida prezidentga taklif kiritish vakolatiga ega bo'ladi. Bosh vazir va hukumati a'zolarining hisobotlarini eshitish ham quyi palataning vakolatiga o'tkazildi, karupsiyaga va monopoliyaga qarshi kurashish organlari rahbarlarini prezident taqdimotiga binoan saylash senatning vakolatiga kiritildi. Senat shuningdek eng yuqori rangdagi sud mansabdorlarini saylaydi, bosh prokuror va hisob palatasi raisligiga nomzodlarni ko'rib chiqib ma'qullaydi. Davlat xavfsizlik xizmati raisligiga nomzod bo'yicha prezident bilan maslahatlashib o'tkazadi, Markaziy bank raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi. Xorijdagi asosiy diplomatlarni tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, tashqari senat mahalliy kengashlarning qonunga zid qarorlarini bekor qilish vakolatiga ega bo'ldi. Qonunchilik palatasi qonunlar bo'yicha qo'shimcha vakolatga ega bo'ladi, unga ko'ra endilikda senat qonunni ma'qullash yoki rad etish



to'g'risida 60 kun ichida qaror qabul qilmasa qonunchilik palatasi qonuni prezidentga yuboradi.

Xulosa. Milliy taraqqiyotimizning ustuvor yo'nalishlarini, yangi tahrirdagi konstitutsiyamiz belgilab beradi. Ushbu konstitutsiyamizda belgilangan noralarning ijrosini ta'minlash ma'qsadida "O'zbekiston 2030 strategiyasi" qabul qilindi. Unda qator ustuvor maqsadlar belgilangan. Manashu strategiyaning o'zi ham konstitutsiya singari xalqning tashabbuslari bilan qabul qilingan. Shu o'rinda aytib o'tish joizki Yangi O'zbekiston har qanday darajadagi normativ-huquqiy hujjatning loyihasi xalqning muhokamasiga taqdim etiladigan kamdan-kam sonli mamlakatlardan biri. Xalqimizning milliy taraqqiyot yo'nalishini konstitutsiya belgilab bersa, konstitutsiyaning muallifi bu xalq hisoblanadi. Biz O'zbekistonning yagona xalqi, ushbu konstitutsiyani qabul qilamiz va e'lon qilamiz, degan so'zlar bilan biz buni muqaddimada ko'rayapmiz, bu esa o'z o'rnida xalqning konstitutsiyasiga qabul qilingan kun sifatida o'tkazilayotgan bayram tantanalari xalqimiz tomonidan ham munosib nishonlanishini talab qiladi yuqori kayfiyatda o'zgacha shukuhda, o'zgacha bir shiddat bilan ayniqsaa yoshlar. Ushbu konstitutsiyaning muhokamasida kelib tushgan takliflarning 70 foizi yoshlardan kelib tushgan. Qaysidir ma'noda aytadigan bo'lsak Yangi Konstitutsiya bu yoshlarning konstitutsiyasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu sababli ham mamakatimizdagi barcha viloyatlarda, tumanlarda, shaharlarda, ovullarda davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan 72-sonli farmoish ososida tasdiqlangan 5 ta muhim yo'nalish, 40 ta banddan iborat bo'gan chora tadbirlar dasturidagi vazifalarni to'liq amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada esa barcha mahallarda, barcha mehnat organlarida, mehnat jamoalarida, talim tashkilotlarda, umum ta'lim maktablarda va shu bilan bir qatorda esa xorijdagi diplomatlar vakillari tomonidan ham elchixonalar tomonidan konsilliklar tomonidan ham, usha joyda isteqomat qilayotgan vatandoshlarimiz, fuqarolarimiz bilan keng ko'lamli targ'ibot ishlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Va shu bilan bir qatorda manashu bayramlarning kutaringi kayfiyatda, tirishqoqlik va jipislik bilan o'tkazilishi esa bugun unib o'sayotgan yosh avlotda konstitutsiya va qonunlarga nisbatdan hurmat hissini tom ma'noda



shakillanishiga, vatanparvarlik to'yg'usi shunchaki emas aksincha bolalaikdan ko'rib qalbda o'zidan-o'zi shakillanadigan jarayon ekanligini tushunishimiz lozim..Tom ma'noda Yangi O'zbekistonning Yangi Konstitsiyasi xalqchil konstitutsiya, xalq konstitsiyasi bo'lib barqaror vafarovon taraqqiyotimizning huquqiy asosi bo'ladi desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

"Huquq", 2022.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: "O'zbekiston", 2023.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent: "O'zbekiston", 2011.
3. Yo'ldoshev Q., Jo'rayev Q. Davlat va huquq nazariyasi. - Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.
4. Saidov A. Konstitutsiyaviy huquq asoslari. Toshkent: "Adolat", 2019.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi rasmiy axborotlari.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti: president.uz
7. Konstitutsiyaviy islohotlar bo'yicha ilmiy-amaliy sharhlar. - Toshkent: